

Sinf: 3-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

### Mashg'ulotning maqsadi

✦ O'quvchilar og'irlik (massa) birliklari – kilogramm va gramm haqida tushuncha hosil qiladilar. Ular  $1 \text{ kg} = 1\,000 \text{ g}$  munosabatini o'rganadilar, sonlarni boshqasiga aylantirish va amaliy hayotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

### Mashg'ulot davomiyligi

⌚ 40 daqiqa

### Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 3-sinf Matematika darsligidagi **Kilogramm va gramm** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

### Muhim va asosiy nazariy qism

⚖️  $1 \text{ kilogramm (kg)} = 1\,000 \text{ gramm (g)}$

– Kichik og'irliklar gramm bilan o'lchanadi (masalan, qalam – 20 g)

– Katta og'irliklar kilogramm bilan o'lchanadi (masalan, qopdagi un – 5 kg)

🔄 Aylantirish:

$3 \text{ kg} = 3\,000 \text{ g}$

$2\,500 \text{ g} = 2 \text{ kg } 500 \text{ g}$

🔧 **Amaliy mashg'ulot: “Kim qancha tortadi?”**

🎯 **Mashg'ulot maqsadi:** O'quvchilar turli buyumlar massalarini aniqlaydilar, ularni kg va g ga aylantiradilar, solishtiradilar va og'irlikni taqqoslaydilar.

📌 **Mashg'ulot bosqichlari:**

1. Buyumlar massalarini tahmin qilish:

– Masalan: kitob, olma, quti shokolad

– Har biri uchun taxmin qilinadi: “Bu nechchi gramm?” yoki “Bu necha kg bo'lishi mumkin?”

2. Model qilish va qiyoslash (Texnologiya integratsiyasi):

– Karton qutilar ichiga turli og'irliklar solinadi

– Bolalar ularni tortib ko'rib, taxmin qilishadi va haqiqiy og'irlikni taqqoslaydilar.

## STEM fanlar bilan integratsiyasi

### Matematika

- Kilogramm va gramm birliklari
- $1 \text{ kg} = 1\,000 \text{ g}$  asosida aylantirish va amallar bajarish
- Solishtirish, qo'shish va ayirish

### Texnologiya

- “Og'irlik qutisi” yasash: qutilarga xom ashyo solish
- Har bir buyumni belgilash va og'irlik yozish

### Informatika

- Excel jadvalda  $\text{kg} \leftrightarrow \text{g}$  aylantirish mashqi

### Tabiiy fanlar

- Haqiqiy hayotdagi buyumlarni massasi bilan tanishtirish
- Suv, meva, kitob kabi buyumlar misolida taqqoslash

### Qiziqarli fakt

-  1 ta olma o'rtacha 150 gramm keladi — 7 ta olma taxminan 1 kg bo'ladi!